O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANITARIYA – EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO’MITASINING SURXONDARYO VILOYATI BOSHQARMASI

B U Y R U Q

2026 yil « 5 » oktabr **№ 85-T** Termiz sh.

Tizimda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish chora-tadbirlari haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tizimda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida

BUYURAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2026-yil 24-avgustdagi 01-07/9116-sonli topshiriq xati ijro uchun qabul qilinsin.
2. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi (D.Ashurov):
2.1. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasida belgilab berilgan topshiriqlar o‘z vaqtida va tegishli tarzda amalga oshirilishi ta’minlansin.
3. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (A.Abdimuminov):
3.1. Ishga qabul qilish jarayonida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarning sudlanganligi, qonunchilikda belgilangan cheklovlar, korrupsiyaga oid, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik holati, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mavjud yoki mavjud emasligi tashkilotning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xodimi tomonidan o‘rganib chiqilishi va tegishli xulosa berilganidan so‘ng ishga qabul qilish tizimini yo‘lga qo‘yish;
3.2. Xorijiy xizmat safarlari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga yuborilishi rejalashtirilayotgan xodimlar haqidagi ma’lumotlarni tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul mutaxassisga oldindan taqdim etish hamda mazkur mutaxassisning xulosasini olgan holda xizmat safariga yuborish tartibini joriy etish.
4. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: Sanepidqo‘mitaning 2026-yil 24-avgustdagi 01-07/9116-sonli topshiriq xati.

boshliq A.Mustanov

Buyruqni tayyorladi:		
inson resurslarini rivoglantirish va boshqarish bo`limi boshligi		**Abdimuminov Asad Ahmatovich**
Kelishilgan:		
yuristkolsolt		**Xolbutayev Shokir Radjabovich**

HRM16939